



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 146 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi	
Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
Ergashev Jo'rabek Xalilovich	
Zo'rvonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'rvonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
Jonbo'tayeva Maxarramxon	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'рни.....	27
Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna	
Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
Norbutayeva Dilafuz Abdurasulovna	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna	
Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach.....	49
Alibekova Mahzuna	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari... 54	54
Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich	
Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi.....	59
Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi	
Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish.....	64
Ruzmetova D. A.	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari.....	68
Saydanova Dilafuz Sadirdinovna	
Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....	75
Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich	
Effective Classroom Activities for Developing Speaking Skills Among EFL Learners.....	79
Akhmatova Munisa Orif qizi	
Xalqaro va milliy baholash dasturlarini hisobga olgan holda boshlang'ich ta'lim mazmunini yangi ta'lim trendlari bilan boyitish.....	86
Gulmira Abdullayeva, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi	
Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs identifikatsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillari.....	90
Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna	
Analysis of the Methodology for Developing Students' Creative Thinking Competence Using Artificial Intelligence Tools Based on STEAM Educational Technologies.....	94
Tursunaliyeva Nazokat Tokhir qizi	



Oliy ta'lim muassasalarida e-Portfolio ma'lumotlarini markazlashmagan tarzda boshqarishning afzalliklari va muammolari	102
Yusupova Dono Adambayevna, Jalolov Tursunbek Sadrriddinovich	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tolerantlik haqidagi qarashlari tahlili	110
Amangeldiyeva Adolat Ravshanbek qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakl, metod va didaktik vositalari	115
Go'zal Qurbonova	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb pedagogik masalalari.....	121
Muratova Munavvar O'rol qizi	
Tarkibida toponimlar mavjud maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularni o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....	126
Usmonova Zamira Jaxongirovna	
Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tassavur fenomenologiyasi	130
Axmedova Shaxlo Shoxob qizi	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (haykaltaroshlik san'ati misolida).....	133
Panayeva Maloxat Muminovna	
Взаимосвязь склонности к сравнению внешности, интернет-зависимости и уровня притязаний у студентов-юношей	136
Багдасарова Диана Левоновна	
Роль каракалпакской народной национальной музыки в формировании духовно-нравственных качеств учащихся	141
Зарымова Турсынай Бердибай кызы	



BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINING INKLYUZIV-TOLERANTLIK HAQIDAGI QARASHLARI TAHLILI

Amangeldiyeva Adolat Ravshanbek qizi

Urganch davlat universiteti tayanch doktranti

ORCID: 0000-0001-7714-529X

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilari va maxsus pedagoglarning inklyuziv bag'rikenglik qadriyatiga oid qarashlari tahlil qilingan. Tadqiqotda 2024-2025-o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan 5 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchisi hamda ular bilan inklyuziv sinflarda ishlayotgan 5 nafar maxsus pedagog ishtirok etdi.

Ma'lumotlar 6 ta ochiq savoldan iborat intervyu savolnomasi yordamida to'plandi va sifat tahlili asosida o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ishtirokchilar inklyuziv bag'rikenglikni farqlarni hurmat qilish, sabr-toqatli bo'lish, boshqalarni tushunish, hurmat va mehr bilan munosabatda bo'lish, hissiy qo'llab-quvvatlash hamda har bir shaxsning o'zini erkin ifoda etishiga imkon yaratish bilan bog'laydilar.

Shuningdek, ular inklyuziv bag'rikenglik jamiyatda tinchlik va ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlashning muhim omili ekanligini ta'kidladilar. Tadqiqot natijalari tolerant sinf muhitini shakllantirishda o'qituvchining shaxsiy namunasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: inklyuziv bag'rikenglik, qadriyat, insonparvarlik, "Tarbiya" fani, boshlang'ich ta'lim, ijtimoiy moslashuv, inklyuziv ta'lim, tolerantlik, pedagogik hamkorlik.

Abstract: This article examines the views of primary school teachers and special educators regarding the value of inclusive tolerance. The study involved five primary school teachers working in general secondary schools during the 2024-2025 academic year and five special educators working alongside them in inclusive classrooms.

Data were collected through a semi-structured interview questionnaire consisting of six open-ended questions and analyzed using qualitative methods. The findings indicate that the participants associate inclusive tolerance with respecting individual differences, demonstrating patience, understanding others, treating people with respect and compassion, providing emotional support, and creating opportunities for everyone to express themselves freely.

The respondents also emphasized that inclusive tolerance is essential for promoting social harmony and peaceful coexistence. Furthermore, the study revealed that teachers' personal example plays a decisive role in creating a tolerant and inclusive classroom environment.

Key words: inclusive tolerance, values, humanity, "Tarbiya" subject, primary education, social adaptation, inclusive education, tolerance, pedagogical collaboration.

Аннотация: В статье рассматриваются взгляды учителей начальных классов и специальных педагогов на ценности инклюзивной толерантности. В исследовании приняли участие 5 учителей начальных классов общеобразовательных школ и 5 специальных педагогов, работавших совместно с ними в инклюзивных классах в 2024-2025 учебном году.

Данные были собраны с помощью полуструктурированного интервью, включавшего шесть открытых вопросов, и проанализированы качественными методами. Результаты показали, что участники связывают инклюзивную толерантность с уважением к индивидуальным различиям, терпением, пониманием других людей, уважительным и доброжелательным отношением, оказанием эмоциональной поддержки и созданием условий для свободного самовыражения каждого человека.

Кроме того, респонденты подчеркнули, что инклюзивная толерантность является важным условием обеспечения общественного согласия и мирного сосуществования. Исследование также показало, что личный пример учителя играет ключевую роль в формировании толерантной и инклюзивной образовательной среды.

Ключевые слова: инклюзивная толерантность, ценности, гуманизм, предмет "Воспитание", начальное образование, социальная адаптация, инклюзивное образование, толерантность, педагогическое сотрудничество.



KIRISH

Boshlang'ich sinfga maxsus ehtiyojli o'quvchilarni qabul qilish o'qituvchilardan barcha o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun o'qitish yondashuvlarini moslashtirishni talab qiladi. Biroq umumiy o'rta ta'lim o'qituvchilari maxsus ehtiyojli o'quvchilarga qanday qilib eng samarali xizmat ko'rsatishni har doim ham to'liq bilavermaydilar. Ushbu tadqiqot maxsus ta'lim mutaxassislari fikriga ko'ra, inklyuziv muhitda maxsus ehtiyojli o'quvchilar bilan ishlash uchun umumiy ta'lim o'qituvchilari va o'qituvchilikka nomzodlar qanday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarurligini o'rganishga qaratilgan.

Tadqiqotchilar umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari va alohida ehtiyojli o'quvchilar o'rtasidagi muvafqiyatli hamkorlik uchun eng muhim deb hisoblangan bilim va ko'nikmalarni aniqlash maqsadida o'n nafar maxsus pedagog bilan suhbat o'tkazdilar. Natijalar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarni tayyorlash va ularning kasbiy rivojlanish dasturlari uchta muhim yo'nalishda uzluksiz ta'lim imkoniyatlarini taqdim etishi zarur. Jumladan, umumiy ta'lim o'qituvchilari: birinchidan, to'g'ri baholash natijalariga asoslanib, asosli qarorlar qabul qilish va ularni amaliyotga tatbiq etishlari; ikkinchidan, alohida ehtiyojli o'quvchilar va ularning individual xususiyatlarini chuqur tushunish hamda ularga nisbatan hamdardlikni rivojlantirishlari; uchinchidan esa, mazkur o'quvchilarni o'qitish jarayonida ishtirok etuvchi barcha mutaxassislardan sinf ichida va undan tashqarida samarali muloqot olib borishni o'rganishlari lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inklyuziv ta'lim - bolalarning imkoniyatlari, individual psixologik va jismoniy xususiyatlari hamda o'zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan maxsus ta'lim jarayonidir. Ushbu ta'lim jarayonida sinf jamoasida mustahkam qadriyatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi ^[3].

Qadriyatlar shaxs va jamiyatni anglash hamda baholashda qo'llaniladigan mezonlar sifatida ta'riflanadi. Ular inson xulq-atvorini boshqarish, shaxs va jamiyatning mavjudligi hamda uzluksizligini ta'minlash qudratiga ega. Qadriyatlar shaxsning ijtimoiy, aqliy, hissiy va ma'naviy rivojlanishining poydevorini tashkil etadi. Shuningdek, ular abstrakt tushunchalar sifatida muayyan vaziyatlar va hodisalarga baho berishda xulq-atvor me'yorlari vazifasini bajaradi.

Qadriyat - biror tarzda va shaklda namoyon bo'ladigan, subyekt uchun muayyan ta'sir ko'rsatadigan voqelikning turli shakllari, ko'rinishlari, narsalar, hodisalar, jarayonlar, munosabatlar, sifatlar, xususiyatlar, axloq va ma'naviylik mezonlarining subyekt uchun ijtimoiy ahamiyati hamda qadrini ifodalovchi umumiy aksiologik kategoriyadir ^[5].

Qadriyat - voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy hamda madaniy-ma'naviy ahamiyatini ifodalash uchun qo'llaniladigan tushunchadir ^[7].

Ta'lim shaxsni jismoniy, aqliy, hissiy, ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy jihatdan har tomonlama rivojlantiradigan jarayondir. Ushbu jarayonda o'qituvchidan nafaqat bilim berish, balki qadriyatlarini o'quvchilarga yetkazish va ularning mazkur qadriyatlarini o'zlashtirishiga ko'maklashish ham kutiladi. O'qituvchilardan tashqari, maktabdagi o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar, ta'lim jarayoni, qo'shimcha ta'lim dasturlari va boshqa omillar ham qadriyatlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Natijada ta'lim insoniy va ijtimoiy qadriyatlarini yosh avlodga singdirishda muhim rol o'ynaydi.

Qadriyatlar ta'limining asosiy maqsadi shaxslarda qadriyatlarga nisbatan xabardorlikni oshirish hamda ularga yashab turgan jamiyat qadriyatlarini singdirishdan iboratdir. Jamiyatlar o'z qadriyatlarini biladigan, ularga amal qiladigan va ularni himoya qiladigan shaxslarni tarbiyalashga intiladi. Qadriyatlar ta'limi orqali shaxslar jamiyatga moslashishni, ijtimoiylashishni va madaniy mansublik tuyg'usini rivojlantirishni o'rganadilar. Asosiy maqsad bolalarga ularning psixologik, kognitiv va ijtimoiy rivojlanish xususiyatlariga mos ravishda o'zlari hamda jamiyat uchun muhim bo'lgan asosiy qadriyatlarini singdirishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich bosqichi o'quv dasturlarida hayotiy ko'nikmalar va qadriyatlar, xususan, bag'rikenglik qadriyati bilan bog'liq o'quv natijalari "Tarbiya" fani, shuningdek, "Ona tili" va "O'qish" fanlari orqali shakllantiriladi. Faol va ongli o'zbek mentaliteti asosida inklyuziv bag'rikenglikni rivojlantirish hamda ijtimoiy hayotga moslashishni osonlashtirishda muhim rol o'ynaydigan "Tarbiya" fani qadriyatlar ta'limiga yo'naltirilgan faoliyatlarga eng ko'p o'rin ajratilgan fan sifatida ajralib turadi.

"Tarbiya" fani orqali o'quvchilarga islohotlarga sodiq, dunyoviy, demokratik va zamonaviy qadriyatlarini qadrlaydigan hamda himoya qiladigan shaxs bo'lib shakllanishlari uchun zarur bo'lgan asosiy bilimlar beriladi. Bundan tashqari, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab-avaylash, jahon madaniyati bilan uyg'un holda rivojlantirish, milliy madaniyatni keng targ'ib etish va uning xalqaro madaniy makondagi o'rni hamda mavqeini mustahkamlashga oid ilgari surilgan g'oyalar aynan "Tarbiya" fani orqali barkamol, bilimga chanqoq yosh avlod ongiga singdiriladi. Shu asosda o'quvchilar huquq va erkinliklarni hurmat qiladigan, farqlarga bag'rikenglik bilan yondashadigan shaxslar sifatida shakllanadilar ^[1].

“Tarbiya” darsligi o‘quvchilarga ijtimoiy muhitga samarali moslashish va o‘zidan farq qiladigan tengdoshlariga bag‘rikeng hamda inklyuziv madaniyat asosida munosabatda bo‘lishni o‘rgatishni maqsad qiladi. Demokratik hayotning qadriyatini aynan shu maqsadga erishish orqali anglash mumkin. Bundan tashqari, “Tarbiya” fani o‘quv dasturi bolalarni tinch va demokratik jamiyatning faol ishtirokchisi bo‘lishi uchun zarur bilim, ko‘nikma va qadriyatlar bilan ta‘minlaydi. Shu tariqa, bolalar o‘z imkoniyatlariga muvofiq jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shadilar va baxtli hayot kechirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Masalan, boshlang‘ich ta‘limning 4-sinf “Tarbiya” darsligidagi “O‘zbekiston - mening Vatanim” hamda “Ulg‘ayaman va rivojlanaman” bo‘limlari bag‘rikenglik qadriyatlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, ular o‘z huquqlarini bilish, barcha insonlarning teng huquqliligini anglash, huquq va majburiyatlarni tushunish, shaxsiy chegaralarni bilish va boshqalarni hurmat qilish, xato qilishdan uyalmaslik, undan xulosa chiqarish, o‘ziga ishonchni rivojlantirish, o‘zini va boshqalarni noo‘rin tanqid qilmaslik, shaxsiy farqlarni tan olish va qabul qilish hamda rasmiy hujjatlardagi ma‘lumotlarni tahlil qilish orqali o‘z shaxsiyati haqida xulosalar chiqarishga yo‘naltirilgan^[11].

Darslikdagi mavzular asosida o‘quvchilar his-tuyg‘ular va fikrlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglaydilar, turli vaziyatlarga oid his-tuyg‘ular va voqealarni ifodalaydilar, boshqalarning his-tuyg‘ulari hamda qarashlarini hurmat qiladilar va hayotidagi muhim voqealarni xronologik tartibda joylashtirishni o‘rganadilar. Ushbu o‘quv natijalari doirasida bag‘rikenglik qadriyati bevosita shakllantiriladigan asosiy qadriyatlardan biri hisoblanadi.

Tolerantlik (lot. tolerantia - sabr-toqat), ya‘ni bag‘rikenglik, boshqalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg‘ulari, fikr-mulohazalari, g‘oyalari va e‘tiqodlariga nisbatan sabr-toqatli va hurmat bilan munosabatda bo‘lish sifatida ta‘riflanadi^[12].

Tolerantlik tushunchasiga universal ta‘rif berish murakkab, chunki uning mazmuni turli madaniyatlarda turlicha talqin qilinadi. UNESCO tomonidan berilgan ta‘rifga ko‘ra, bag‘rikenglik boshqa insonning boshqacha bo‘lish huquqini tan olish, unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va zarar yetkazmaslikni anglatadi. Chunki boshqaga yetkazilgan zarar oxir-oqibat jamiyatning o‘ziga ham zarar yetkazadi. Bag‘rikenglikning asosini esa o‘zaro tushunish tashkil etadi^[9].

Inklyuziv ta‘lim modeli barcha bolalar uchun muhim hisoblanadi. U atrof-muhitni va bolalarning atrofdegilar bilan muloqot qilish usullarini imkon qadar tabiiylashtirishga xizmat qiladi. Maxsus ta‘lim ehtiyoji bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining rivojlanishi izchil takomillashib boradi, chunki ular kundan-kunga ijtimoiy hamjamiyatga integratsiyalashadi va bu jarayonda kattalarga nisbatan ko‘proq tengdoshlari bilan bevosita muloqot qiladilar.

Alohida ehtiyojli o‘quvchilar uchun inklyuziv sinflarni tashkil etish moslashtirilgan o‘quv dasturlarini yaratishni, adolatli va erkin ta‘lim muhitini shakllantirishni hamda tizimli pedagogik yondashuvni talab etadi^[2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Inklyuziv sinflardagi psixofizik nuqsonlari bo‘lmagan bolalar erta yoshdan boshlab alohida ehtiyojli bolalar bilan muloqot qilish orqali dunyo yagona odamlar hamjamiyati ekanligini, jumladan, ularning yordamiga muhtoj bo‘lganlarni ham o‘z ichiga olishini asta-sekin anglaydilar. Sog‘lom bolalar uchun bunday muloqot axloqiy tarbiyaning bebaho manbai bo‘lib, ular o‘zlaridan farq qiladigan tengdoshlariga yordam berishni, hamdardlik qilishni, ko‘maklashishni va himoya qilishni o‘rganadilar. Alohida ta‘lim ehtiyoji bo‘lgan tengdoshlarining ta‘limiy va ijtimoiy tadbirlarda faol ishtirok etishiga yordam berish orqali sog‘lom bolalar, buni sezmasdan, hayot uchun muhim saboqlarni o‘zlashtiradilar.

Bag‘rikenglik nafaqat axloqiy burch, balki siyosiy va huquqiy zarurat hamdir. Keng ma‘noda, bag‘rikenglik tinch muhitni ta‘minlash imkonini beradi. Farqlar o‘rtasida uyg‘unlikni rag‘batlantiruvchi bag‘rikenglik demokratik jamiyatlarning tinch va osoyishta yashashini ta‘minlovchi asosiy qadriyatlardan biridir. Chunki bag‘rikenglikka ega bo‘lmagan shaxslar jamiyatida demokratiya, fan va ilmiy tafakkurning rivojlanishi qiyin kechadi. Tolerantlik - bu umumiy inson huquqlari va shaxslarning asosiy erkinliklarini tan olishni ta‘minlovchi qadriyat bo‘lib, u shaxslar, guruhlar va davlatlar tomonidan amalda qo‘llaniladi. Tolerantlik tushunchasi bilan ta‘lim o‘rtasidagi munosabatni o‘rnatish va tolerantlikni ta‘lim mavzusiga aylantirish uchun bu abstrakt tushunchaga berilgan aniq ma‘nolarni aniqlash zarur. Ta‘lim bag‘rikenglikka qarshi eng yaxshi vosita bo‘lib, maktab esa bag‘rikenglikni rivojlantirishda asosiy muassasadir.

Bag‘rikenglik ta‘limining maqsadlaridan biri talabalarga ijtimoiy adolatni ta‘minlay oladigan jahon tartibini yaratishga hissa qo‘shadigan strategiyalarni ishlab chiqishda yordam berishdir. Shuningdek, barcha maktablarda xavfsiz o‘quv muhiti yaratilganda, o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy o‘zaro munosabatlar to‘g‘ri shakllanadi. Sog‘lom va xavfsiz maktab muhiti, ayniqsa, inklyuziv sinflarda eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.^[4]

Inklyuziv-tolerantlik - bu ta‘lim jarayonida o‘quvchilarga singdirilishi kerak bo‘lgan qadriyatdir. Jamiyatlarda tolerant shaxslarning bo‘lishi yoki bo‘lmasligi yuqori sifatli inklyuziv-tolerantlikning ta‘minlanishiga bog‘liq. O‘qituvchilar bag‘rikenglik ta‘limida muhim rol o‘ynaydi. Bu kontekstda o‘qituvchilarning bag‘rikenglik ta‘limi sohasida



yetarlicha tayyorlanganligi maktab ichida bag'rikenglik va birga yashash madaniyatini rivojlantirishdagi eng muhim omillardan biridir. O'qituvchilar jamiyatdagi bolalarga eng katta ta'sir ko'rsatadigan shaxslardan biridir. Bolalarning nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki asosiy qadriyatlarni ham o'zlashtirishi uchun ustozlar bu qadriyatlarni qadrlaydigan va ularni o'qitish hamda o'rganish jarayonida ustuvor qiladigan bo'lishlari zarur. O'qituvchilarning dars rejasi bag'rikenglikni o'z ichiga olgan falsafiy tushunchaga asoslanib tuzilishi kerak. Avvalo, o'qituvchilar inson huquqlariga, farqlarning muqarrarligiga, bag'rikenglik va hurmatga hamda demokratik hayot tarziga ishonishlari zarur. Chunki o'quvchilarning fikrlaydigan, tanqidiy fikr yurituvchi, bahslashuvchi va mustaqil shaxslarga aylanishini rivojlantirish asosan o'qituvchilar va ta'lim tizimiga bog'liq.

Ta'lim va maktabning asosiy maqsadi shaxslarga bilim, ko'nikma va qadriyatlarni singdirish orqali ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga hissa qo'shishdir. Ta'lim belgilangan maqsadlarga erishishi uchun o'qituvchilar ham ma'lum sifatlarga ega bo'lishlari kerak. Bu kontekstda asosiy qadriyatlardan biri bag'rikenglikdir. Bag'rikeng sinf muhitini shakllantirish maktabda bag'rikenglik qadriyatini singdirish bo'yicha eng samarali va muhim tashabbus deb hisoblanadi. Talabalar o'rtasidagi, ularning o'qituvchilari, maktab ma'muriyati va xodimlari, oilalari hamda kengroq jamoadagi odamlar bilan munosabatlarida bag'rikenglik qadriyatining ko'zga ko'rinadigan namoyon bo'lishi ushbu qadriyatni egallash uchun zarur shart hisoblanadi. Maktab ichida o'qituvchilar avvalo akademik masalalarda ham, muloqot jarayonida ham bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishlari lozim.

O'qituvchilar buyuk bobokalonlarimiz va Yangi O'zbekistonning bugungi rivojlanishiga hissa qo'shgan shaxslarning hayot hikoyalaridan foydalanib, bag'rikenglik qadriyatini targ'ib qilishlari, bolalarni voqealar, xususan, o'zlari yoki yaqin atrof-muhit bilan bog'liq voqealarni o'ylab ko'rishga va muhokama qilishga undashlari mumkin. Sabr-toqatlilik va besabriklarni tahlil qilish uchun misollarni gazeta va jurnallardan olish mumkin. Bag'rikenglik haqidagi hikoya, ertak va masallar o'qilishi, sahnalashtirish o'yinlari vositasidan foydalanilishi hamda o'quvchilar sabr-toqat mavzusida devoriy gazetalar tayyorlashga undalishi mumkin. Qadriyatlar ta'limida oilaning roli juda muhim bo'lgani uchun ota-onalar ishtirokidagi "Ochiq eshiklar kuni", seminarlar va tadbirlar tashkil etilishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot o'qituvchilarning inklyuziv-tolerantlik haqidagi qarashlarini o'rganishga qaratilganligini ko'rsatadi. Qadriyatlar ta'limi va qadriyatlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarni ko'rib chiqish shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarning ma'lum qadriyatlarga bo'lgan munosabatini o'rganadigan tadqiqotlar yetarli emas. O'qituvchilarning qadriyatlarga bo'lgan qarashlarini, qadriyatlarni idrok etish usullarini va ularning kasbiy nuqtayi nazardan qadriyatlarga yondashuvini aniqlash samarali qadriyatlar ta'limini ta'minlash uchun muhimdir. Shu kontekstda tadqiqotning maqsadi boshlang'ich sinf o'qituvchilari va maxsus pedagoglarning qarashlarini o'rganishdir. Tajribani tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik o'qituvchilar bag'rikenglik odamlarga tinch va baxtli hayot kechirish imkonini bergani uchun muhim deb hisoblaydi. Maxsus pedagoglar bag'rikenglik sog'lom jamiyat barpo etishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydilar. Jamiyatda shaxslarning tinchlik va baxt-saodatda yashashi uchun bag'rikenglikning ahamiyati haqidagi fikrlariga kelsak, o'qituvchilar shunday dedilar:

"Fikrimcha, bag'rikenglik jamiyatda odamlarning bir-biriga nisbatan yanada uyg'un munosabatda bo'lishiga yordam beradi. Boshqacha qilib aytganda, bu jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soluvchi ijobiy jihatlardan biridir."

Maxsus pedagog fikrini quyidagicha ifoda etdi:

"Axir, agar biz oldimizdagi odamning fikrlariga hurmat qilmasak, odamlar o'rtasida katta mojarolar va kelishmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, men sizning qarashlaringizni hurmat qilganimdek, o'z qarashlarim ham hurmat qilinishini xohlayman. Shu tariqa yanada osoyishta muhit yaratiladi."

Boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan ayrimlari bag'rikenglik odamlar o'rtasida sog'lom muloqot o'rnatish uchun muhimligini, boshqalari esa bu mamlakatlarning rivojlanishi va taraqqiy etishi hamda yaxshiroq ta'lim muhitini yaratish uchun zarurligini ta'kidladilar. Maxsus pedagoglardan yana biri: "Tolerantlik mavjud bo'lgan jamiyatda odamlar baxtliroq bo'ladi. Odamlar bir-birini hurmat qilib, qabul qilganda bahs-munozaralar bo'lmaydi. Ular bir-biri haqida yomon gapirmaydi", deya javob bergan.

O'qituvchilar bergan javoblar: bag'rikenglik xalqlarning rivojlanishi uchun zarurdir. "Bag'rikenglik odamlar va jamiyatlarga tinchlikda yashash imkonini beradi. Ziddiyat va urushlardan xoli mamlakatlarda shaxslar fan va texnologiya bilan shug'ullanadi, shu orqali milliy rivojlanishni rag'batlantiradi. Jamiyatlar rivojlanib, yuqori turmush darajasiga erishishi uchun odamlar va jamiyatlar bir-biri bilan bag'rikenglik ruhida yashashi kerak."

Tadqiqotda ishtirok etgan boshlang'ich sinf o'qituvchilari va maxsus pedagoglar bag'rikenglik birga yashash uchun muhim, degan fikrni bildirishdi. Bundan tashqari, ular bag'rikenglik zamonaviy, tartibli jamiyat hamda tinch va baxtli hayot uchun zarur ekanligini ta'kidladilar. O'qituvchilarning aksariyati jamiyatda bag'rikenglik shakllanmaganini yoki o'tmishga nisbatan kamayganini ham qayd etdilar. Tadqiqotda ishtirok etgan o'qituvchi va maxsus pedagoglarning aksariyati o'quvchilarning inklyuziv-bag'rikengligini shakllantirishda oila, teng-

doshlar guruhlari, o'qituvchilar, namuna bo'ladigan shaxslar, kitoblar, ijtimoiy faoliyatlar, shaxsiy kuzatuvlar, ijtimoiy o'rganish hamda ommaviy axborot vositalari omillari muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidladilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, maktab o'qituvchilari va maxsus pedagoglarning inklyuziv-bag'rikenglik haqidagi qarashlari umumiy bo'lib, ular o'qituvchi sifatida o'z shaxsida sabrli, tushunuvchi, hamdard, turli g'oyalarga ochiq va samarali muloqot ko'nikmalariga ega bo'lish lozimligini ta'kidladilar. Ishtirokchi pedagoglar oilaning va inklyuziv maktab muhitining bag'rikeng shaxsni shakllantirishda muhim rol o'ynashini, bag'rikeng muhitni shakllantirishda ta'limni juda muhim deb hisoblaganlar. Insonparvarlik, hurmat va tushunish bag'rikeng muhitning asosiy tamoyillari sifatida qaralgan. Ishtirokchilarning bayonotlari ularning bag'rikenglik qadriyatiga ijobiy munosabatda ekanliklarini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi tavsiyalar berilishi mumkin. Inklyuziv sinflarda ish olib borayotgan boshlang'ich sinf o'qituvchilari va maxsus pedagoglar uchun inklyuziv-tolerant sinflarni tashkil etishda ularning kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiluvchi "Pedagogik mahorat" darsligidan foydalanish, shuningdek, pedagoglar uchun o'quv yili davomida o'quvchilarda inklyuziv-tolerantlikni shakllantirish bo'yicha zamonning eng so'nggi pedagogik texnologiyalarini o'rgatuvchi seminar va treninglar tashkil qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim-muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 422-sonli qaror.6-iyul.2020-yil. <https://lex.uz/docs/-4885018>
2. Amangeldiyeva A.R. Boshlang'ich sinflarda inklyuziv tolerant muhitni yaratishning pedagogik tizimi. "Zamonaviy ilm-fanda olim ayollarning o'rni" mavzusidagi II respublika ilmiy-amaliy anjumani. 2026-yil, 10-11-fevral.397-400 b.
3. Amangeldiyeva A.R.Inklyuziv ta'lim muhitini yaratishda inklyuziv ta'lim va tolerantlikning integratsiyasi. "Pedagogik ta'limning ilmiy-metodik muammolari: innovatsion yondashuvlar va tadqiqotlar" respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami.2025-yil, 24-sentabr. 109-112 betlar.
4. Bracy, N. L. Student perceptions of high-security school environments. Youth & Society, 43(1), 365-395.
5. Nazarov.Q.N. Qadriyatlar falsafasi. Toshkent.Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti-2004. 83-b.
6. Николсон П. П. Толерантность как моральный идеал / Питер П. Николсон // Толерантность. Исследования. Переводы. Информация. О книгах / науч. ред. М
7. Odilova M., Jabbarova D., Jo'raev S. Pedagogik atamalar.Namangan.2023. 91-b.
8. Quchqorova N.M., Otayeva S.S., Aamangeldiyeva A.R., Yo'lchiyeva Sh.O. Pedagogik mahorat. Bookmany print.Toshkent.2024.186-b.
9. Tolerance: The threshold of peace a teaching/ learning guide for education for peace, human rights and democracy (Preliminary version). UNESCO. ED.94/WS/8.45 page. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000098178>
10. Usmanova O.V., Risyukova Y. V. Tarbiya. Darslik. 3-sinf. Novda edutainment.Toshkent-2023.104-b.
11. Usmanova O.V., Risyukova Y. V. Tarbiya. Darslik. 4-sinf. Novda edutainment.Toshkent-2023.80 b.
12. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. "T" harfi.475-bet.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.